ISNN:2181-1296

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ ШАРОФА РАШИДОВА

SAMARKAND STATE UNIVERSITY NAMED AFTER SHAROF RASHIDOV

ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК
SCIENTIFIC JOURNAL

GUMANITAR FANLAR SERIYASI

№ 2/2 (156)
2026

ISSN 2181-1296

ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК SCIENTIFIC JOURNAL

2026-yil, 2-son (156/2) GUMANITAR FANLAR SERIYASI

Tarix, Falsafa, Huquqshunoslik, Siyosiy fanlar, O‘qitish metodikasi, Filologiya, Pedagogika, Sotsiologiya, Psixologiya

Samarqand viloyat matbuot boshqarmasida ro‘yxatdan o‘tish tartibi 09-25.
Jurnal 1999-yildan chop qilina boshlagan va OAK ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR **R.I.XALMURADOV, t.f.d., professor**
BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI: **H.A.XUSHVAQTOV, f-m.f.d., dotsent**

TAHRIRIYAT KENGASHI:

M.Q.Muhiddinov	-f.f.d., professor (SamDU)	B.E.Ergashev	-t.f.d., professor (SamDU)
Stefano Benazzi	-Bolonya universiteti professori (Italiya)	S.A.Karimov	-f. f. d., professor (SamDU)
Simone Mantelini	-Bolonya universiteti professori (Italiya)	M.X.Lutfullayev	-p.f.d.. professor (SamDU)
Sh.Y.Ziyodov	-i.f.d. (Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi)	A.R.Samadov	-fal. f.d., professor (SamDU)
N.U.Arabov	-i.f.d., professor (SamDU)	Sh.A.Hasanov	-f.f.d., professor (SamDU)
Hiroaki Huziie	-Osaka universiteti professori (Yaponiya)	B.S.G‘oyibov	-t.f.d., (SamDU)
B.O.To‘rayev	-fal. f.d., professor (Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-	G.B.Normurodova	-t.f.d., (SamDU)
A.B.Pardayev	-f. f.d., professor (SamDU)	F.Sh.Rashidova	-t.f.f.d., dotsent (SamDU)
O.Yusupova	-f.f.n., dotsent (SamDU)	D.Q.Usmonova	-i.f.n., dotsent (SamDU)
O.Qodirov	-p.f.n., dotsent (SamDU)	N.A.Isakova	-f.f.n., dotsent (SamDU)

Obuna indeksi – yakka tartibdagi obunachilar uchun **- 5583,**
tashkilot, korxonalar uchun- **5584**

M U N D A R I J A
C O N T E N T S

№	Maqola nomi	Article title	Bet/page
1	Samarqandning Temuriylar sulolasi davridagi evolyutsiyasi, uning sivilizatsiyalarga o‘zaro ta’siri va uyg‘unlashuvi **Keremu N.**	The evolution of samarkand during the timurid dynasty and the interaction and fusion of its civilizations **Keremu N.**	**5-11**
2	Nazar Eshonqulning “Bepoyon osmon” hikoyasida muallif uslubiga lingvopoetik jihatdan yondashuv **Safarova D.B.**	A Linguopoetic Approach to the Authorial Style in Nazar Eshonqul’s Short Story “Bepoyon osmon” (The Boundless Sky”) **Safarova D.B.**	**12-15**
3	Ingliz va o‘zbek tillarida neologizmlarning tasnifi va ularning til tizimidagi o‘rni **Pardayeva N.B.**	Classification of neologisms in english and uzbek languages and their role in the language system **Pardaeva N.B.**	**16-20**
4	O‘rta asrlarda sharq va g‘arbiy yevropa mamlakatlaridagi davlat boshqaruvi va ijtimoiy tuzilmalarining qiyosiy tahlili **Abdullayev A.G.**	A comparative analysis of public administration and social structures in the countries of Eastern and Western Europe in the Middle Ages **Abdullaev A.G.**	**21-27**
5	Davlat ekologik ekspertizasi tizimining shakllanish tarixi va uning rivojlanish bosqichlari **O‘tayev O‘. Ch.**	History of the formation of the state ecological expertise system and its development stages **Utaev U. Ch.**	**28-30**
6	Samkomstarisning Samarqanddagi arxeologik tadqiqotlari va muzey fondlari shakllanishiga qo‘shgan hissasi **Yunusov M.**	The contribution of samkomstaris to archaeological research in Samarkand and to the formation of museum collections **Yunusov M.**	**31-36**
7	7-9-sinf o‘quvchilarining stem kompetensiyalarini baholash: spetsifikatsiya, mezonlar va kpi indikatorlari **Aliyeva X.Sh.**	Assessment of Stem competencies of 7-9 grade students: specification, criteria and kpi indicators **Alieva Kh.Sh.**	**37-42**
8	Raqamli tibbiy ta’limda talabalarda profilaktik immun madaniyatni rivojlantirish texnologiyalari **Mirzakarimova D.B.**	Technologies for the development of preventive immune culture in digital medical education students **Mirzakarimova D.B.**	**43-49**
9	10-12 yoshli kurashchilarda egiluvchanlik sifatining kurash texnikasini o‘zlashtirish samaradorligiga ta’siri **Toshmurodov O.**	The effect of flexibility on the efficiency of kurash technique acquisition in 10–12-year-old kurash athletes **Toshmurodov O.**	**50-57**
10	Влияние государственной политики развития спорта (в контексте «нового Узбекистана») на мотивацию учащихся спортивных школ **Мадаминов Б.Ш.**	The influence of state policy on sports development (in the context of "New Uzbekistan") on the motivation of students in sports schools **Madaminov B.Sh.**	**58-62**
11	Трансформация и калькирование иронических фразеологических единиц в русском и узбекском языках **Тошбекова Д.И.**	Transformation and Calquing of Ironic Phraseological Units in Russian and Uzbek **Toshbekova D.I.**	**63-68**
12	Объективная и субъективная модальность в русском и узбекском языках **Усманова С.Ю.**	Objective and subjective modality in Russian and Uzbek languages **Usmanova S.Yu.**	**69-76**
13	Образ женщин в произведениях Ч. Айтматова **Хаитова Ф.С.**	The Image of Women in the Works of Ch. Aitmatov **Khaitova F.S.**	**77-81**
14	Voleybol murabbiylarini tayyorlash jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish afzalligi **Boltayev Z.B.**	The advantage of using modern pedagogical technologies in the process of training volleyball coaches **Boltaev Z.B.**	**82-87**

№	Maqola nomi	Article title	Bet/page
15	Bo‘lajak shifokorlarda klinik-diagnostik kompetensiyani rivojlantirishning pedagogik modeli va raqamli ta’lim **Zokirov M.M.**	Pedagogical model for developing clinical-diagnostic competence in future physicians and digital educational technologies **Zokirov M.M.**	**88-93**
16	Turkiya hamkorlik va muvofiqlashtirish agentligi (tika)ning tashkil etilishi va rivojlanish bosqichlari hamda tashkiliy-siyosiy asoslari **Isadjanov B.I.**	The Establishment and Development of the Turkish Cooperation and Coordination Agency (TIKA), as well as its Organizational and Political Foundations **Isadjanov B.I.**	**94-98**
17	Ingliz gazeta sarlavhalarining tarjima xususiyatlari: lingvostilistik tahlil **Husanova Sh.Z., Isakova N.A.**	Translation features of English newspaper headlines: linguistic-stylistic analysis **Husanova Sh.Z., Isakova N.A.**	**99-103**
18	Boshlang‘ich sinflarda ona tilini o‘qitishda 4k modeli orqali fikrlash va ijodkorlikni rivojlantirish **Gadayev O.Y., Norkulova J.S.**	Developing thinking and creativity through the 4k model in teaching mother tongue in primary grades **Gadayev O.Y., Norkulova J.S.**	**104-108**
19	Raqamli demokratiya sharoitida legitimlik va fuqarolik faolligining konfiguratsiyasi **Muminjonova U.X.**	Configuration of legitimacy and citizenship in the digital democracy **Muminjonova U.X.**	**109-113**
20	Simulyatsion va raqamli ta’lim muhitida jarrohlik fanini o‘qitishda amaliy kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish texnologiyasi **Abduvoxidov A.A.**	Technology for developing practical professional competencies in teaching surgery within a simulation-based and digital learning environment **Abduvoxidov A.A.**	**114-119**
21	Shoshilinch tibbiy yordamda travmatologik holatlarni sun’iy intellekt asosida erta triaj qilish va klinik qaror qabul qilish samaradorligini oshirish metodikasi **Xolmatov A.A.**	Methodology for improving the efficiency of early triage and clinical decision-making in traumatological conditions in emergency medical care based on artificial intelligence **Xolmatov A.A.**	**120-125**
22	Bo‘lajak shifokorlarda klinik qaror qabul qilish kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik raqamli texnologiyalari **Samatov Z.Z.**	Pedagogical digital technologies for developing clinical decision-making competence in future physicians **Samatov Z.Z.**	**126-130**
23	Yuqumli kasalliklar fanini o‘qitishda klinik-profilaktik fikrlash va epidemiologik xavflarni boshqarish kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyasi **Turdiyev M.N.**	Technology for developing clinical-preventive thinking and epidemiological risk management competencies in teaching infectious diseases **Turdiev M.N.**	**131-136**
24	Bo‘lajak shifokorlarga raqamli ta’lim muhitida anatomiya fanini o‘qitishninig zamonaviy texnologiyalari **Nishonova D.T.**	Modern technologies of teaching anatomy to future physicians in a digital educational environment **Nishonova D.T.**	**137-142**
25	Stomatologiya ta’limida valeologik madaniyatni rivojlantirishning integrativ va raqamli pedagogik texnologiyalari **Kamoliddinova I.Sh.**	Ntegrative and digital pedagogical technologies for developing valeological culture in dental education **Kamoliddinova I.Sh.**	**143-148**
26	Raqamli ta’lim muhitida o‘quvchilarda mediasavodxonlik ko‘nikmalarini interfaol ta’lim texnologiyalari asosida takomillashtirish **Temirova Z.A.**	Improving students’ media literacy skills in a digital learning environment based on interactive educational technologies **Temirova Z.A.**	**149-154**
27	Tibbiy ta’lim muassasalari talabalarida klinik fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyasi **Kamalova D.A.**	Technology for developing clinical thinking competence among students of medical educational institutions **Kamalova D.A.**	**155-159**
28	Charlz Dikkensning ijodida idio-stilning rivojlanishi: lingvostilistika tahlili **Rahmatilloyeva R.S.**	The development of idio-style in charles dickens’s creative work: linguastylistic analysis **Rahmatilloeva R.S.**	**160-167**

UDK: 316.2 (5751) https://doi.org/10.59251/2181-3973.2025.v1.138.1.3867

O‘RTA ASRLARDA SHARQ VA G‘ARBIY YEVROPA MAMLAKATLARIDAGI DAVLAT BOSHQARUVI VA IJTIMOIY TUZILMALARINING QIYOSIY TAHLILI

A.G.Abdullayev
O‘zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti, Toshkent, O‘zbekiston.

A.G.Abdullayev O‘zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti, Toshkent, O‘zbekiston.

Kelib tushgan: 16.03.2026
Ko‘rib chiqildi: 30.03.2026
Qabul qilindi: 12.04.2026
Nashr qilindi: 30.05.2026

Nashriyotchi: Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti.

Annotatsiya. Maqolada muallif o‘rta asrlarda Sharq va G‘arbiy Yevropa mamlakatlaridagi davlat boshqaruvi va ijtimoiy tuzilmalarining qiyosiy tahlili sotsiologik tadqiqotlar orqali yoritilib, eng qadimgi davrlardan XVI asrgacha bo‘lgan davrlarda Sharq va G‘arbiy Yevropada davlatlar nomi va soni, davlat va jamiyatni boshqaruvi shakli, jamiyatning ijtimoiy strukturasi, sotsial stratifikatsiya, ijtimoiy toifalar, ilm, fan va ma’rifatning rivojlanganlik darajasi, adolatli boshqaruv, davlat boshqaruviga doir islohotlar kabi mezonlar bilan qiyosiy tahlil qilinadi. Shuningdek, G‘arbdagi ikkinchi iga Sharqdagi birinchi renessansning metodologik ta’sir ko‘rsatganligi ilmiy asoslantiriladi.

Kalit so‘zlar: Davlat, davlat boshqaruv, G‘arb Yevropa va Sharq davlat boshqaruvi, struktura, ilmiy kashfiyotlar, islohotlar, mezon, ijtimoiy jarayonlar, ijtimoiy toifalar, adolatli boshqaruv, sotsial stratifikatsiya, qiyosiy tahlil, renessans davlat boshqaruv.

Сравнительный анализ государственного управления и сотсиальных структур в странах восточной и западной европы в средние века

Аннотация. В статье автор освещает сравнительный анализ государственного управления и социальных структур в странах Восточной и Западной Европы в средние века посредством социологических исследований и проводит сравнительный анализ по таким критериям, как название и количество государств, форма управления государством и обществом, социальная структура общества, социальная стратификация, социальные категории, уровень развития науки и просвещения, справедливое управление, реформы государственного управления в Восточной и Западной Европе с древнейших времен до XVI века. Также научно обосновано методологическое влияние первого Восточного Ренессанса на второй на Западе.

Ключевые слова. Государство, государственное управление, государственное управление Западной Европы и Востока, структура, научные открытия, реформы, критерии, социальные процессы, социальные категории, справедливое управление, социальная стратификация, сравнительный анализ, государственное управление Ренессанса.

A comparative analysis of public administration and social structures in the countries of Eastern and Western Europe in the Middle Ages

Abstract. In this article, the author examines the systems of state governance and social structures in the countries of the East and Western Europe during the Middle Ages through a comparative sociological analysis. The study compares the Eastern and Western European states from ancient times to the sixteenth century

according to such criteria as the number and names of states, forms of state and social governance, social structure, social stratification, social classes, the level of development of science, knowledge and education, principles of just governance, and reforms related to public administration. Furthermore, the article provides a scientific substantiation of the methodological influence of the First Renaissance in the East on the Second Renaissance in the West. The findings contribute to a deeper understanding of the similarities and differences in the historical development of governance systems and social processes in Eastern and Western civilizations.

Keywords: state, public administration, Eastern and Western European governance, social structure, scientific discoveries, reforms, criteria, social processes, social classes, just governance, social stratification, comparative analysis, Renaissance, state administration.

Kirish. XVIII-XX asrlar davomida butun dunyodagi imperialistik global siyosat dunyo mamlakatlarining siyosiy va ijtimoiy manzarasini butunlay o‘zgartirib yuborib, birinchi va ikkinchi jahon urushlari oqibatida dunyo xalqlari o‘z tarixini bilish va bu tarixiy bilimlarni avloddan avlodga o‘tkazish jarayonlari betartib kechganligi sababli tarixiy manbalar bir necha bor o‘zgartirilgan va ma’lumotlar chalkashib ketganligi ko‘plab G‘arb olimlariga qo‘l kelib o‘zlarining ko‘plab asarlarida Sharq sivilizatsiyani G‘arbdan olgan degan fikrlarni ochiq-oydin aytganlar. Chunki eng boy davlatchilik tarixiga ega bo‘lgan Hindiston, Misr, O‘rta, Yaqin va Sharqiy Osiyo mamlakatlari Angliya, Fransiya, Ispaniya, Portugaliya va Rossiya kabi yirik imperialistik davlatlar tarkibida mustamlaka bo‘lgan davrida ko‘plab ilmiy adabiyotlar, tarixiy manbalar, qadimiy yodgorliklar tashib ketilgan yoki yo‘q qilingan. Natijada keyingi avlod o‘z tarixini va milliy identikligini bilish jarayoni uzilib qolish natijasida uzoq vaqtlar davomida millat sifatida, davlat sifatida, xalq sifatida dunyo sivilizatsiyasiga hissa olishi mumkin bo‘lgan avlod sifati tiklana olishi qiyinlashgan. O‘zbekiston ham xuddi shu kabi deyarli yetmish yillik mustamlakachilikdan qutilib, o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgan dastlabki davrlardan toki shu vaqtga qadar o‘zining haqiqiy davlatchilik tarixini tiklash ozod va farovon davlat hamda jamiyat qurish, kelgusi avlodga uch ming yillik haqiqiy davlatchilik tarixini, ilm va ma’rifatni hech bir kamchiliksiz tiklab berish uchun o‘ttiz yildan ortiq davr mobaynida ko‘plab xayrli ishlar amalga oshirildi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Hozirgi zamonaviy sotsiologiyada qo‘llaniladigan qiyosiy sotsiologiya usuli mumtoz sotsiologlar Maks Veber va Emil Dyurkgeymlar hisoblanadilar. Maks Veberning ta’kidlashicha, ijtimoiy fanlar obyektining o‘ziga xosligi tadqiqotchi tomonidan qiziqishni va shuning uchun qiymat yo‘nalishi mavjudligini nazarda tutadi: “Qadriyat g‘oyalari bilan shartlangan individual voqelikning ahamiyatsiz qismi bizning qiziqishimiz bilan yanada aniqroq bo‘ladi, faqat bu biz uchun ma’noga ega va bu uning qiymat g‘oyalari bilan o‘zaro bog‘liqligi tufayli biz uchun muhim bo‘lgan aloqalarni o‘z ichiga olganligi bilan bog‘liq. Biroq empirik ma’lumotlarni qiyosiy usul bilan o‘rganishda biz uchun aynan nima muhimligini aniqlash shart emas. Biz uchun muhim bo‘lgan narsani, ya’ni bu masalaning predmetini aniqlash, sotsiologik tadqiqotning shartidir” deb ta’kidlagan [1; 373]. Emil Dyurkgeym esa “Qiyosiy sotsiologiya sotsiologiyaning maxsus bo‘limi emas; bu sotsiologiyaning o‘zi, chunki u sof tavsiflovchi fan bo‘lishdan to‘xtamaydi va faktlarni tushuntirishga intiladi” deb qiyosiy sotsiologiyaga yuqori baho bergan [2; 115].

Rus sotsiologi B.Mironov qiyosiy sotsiologiya haqida quyidagi fikrlarni bildirgan: Sotsiologiyaga doir adabiyotlarga murojaat qiladigan bo‘lsak, ko‘pincha qiyosiy sotsiologiya haqida bildirilgan fikrlar va qarashlarning ko‘pligidan qiyosiy sotsiologiya nima ekanligini aniqlash mushkulga o‘xshaydi. Umuman olganda, qiyosiy sotsiologiya ijtimoiy voqelikni tahlil qilishda muhim o‘rin tutadi. Qiyosiy sotsiologiya ijtimoiy faktlarni idrok etishning asosi, muayyan ko‘rsatkichlar va xususiyatlarni taqqoslash orqali asoslangan xulosalarga kelish imkonini beradi [3; 72].

Tadqiqot metodologiyasi. Qiyosiy tarixiy metod tarixiy-huquqiy tadqiqotning eng keng tarqalgan metodlaridan biri bo‘lib, bu metod davlat-huquqiy tarixida ma’lum xususiyatlarning ma’lum bir takrorlanishini tan olishga asoslanadi va ularni taqqoslash yo‘li bilan o‘rganishga qaratilgan. Qiyosiy usuldan foydalanish bir vaqtning o‘zida turli mamlakatlarda yoki tarixiy davrlarning turli vaqt

diapazonlarida davlat va huquqning rivojlanishidagi ba'zi umumiy qonuniyatlar, mos keladigan va mos kelmaydigan xususiyatlarni aniqlash imkonini beradi. Tadqiqotda qiyosiy sotsiologiya metoddan tashqari Retrospektiv va Qiyosiy tarixiy metodlari ham qo'llaniladi. Retrospektiv metodi (lotincha retro – qaytma va spicio – yondashish). U davlat tuzilmalari va shakllari o'tgan davr hamda hozirgi kun va kelajakdagi holatlarning bir-biri bilan chambarchas bog'liq ekanligiga asoslanadi. Ushbu usul o'rganilayotgan vaqtga oid manbalarning to'liq va mukammal bo'lmagan taqdirda ham o'tmishdagi siyosiy va ijtimoiy manzarani qayta tiklash orqali ijtimoiy faktni mantiqiy tasavvur qilish imkonini beradi [4; 134].

Sharq va G'arbiy Yevropa mamlakatlaridagi davlat va jamiyat boshqaruvi tuzilmalarini taqqoslash uchun biz ikkita jarayonni o'z ichiga oladigan yondashuvni tanlab olindi:

Birinchisi, davlat jamiyat haqidagi ilk davlatlar haqidagi manbalarning yozilgan davri va ko'lamini asos qilib olamiz, bu aniq manbalarni xronologik jadvalda tartibda ketma-ket va yonma-yon qo'yish orqali umumiy asosni topish orqali solishtirish. Bunda taqqoslash uchun asos bo'lib, o'ziga xos tur va ko'rinishini tavsiflash orqali yakuniy xulosalarni berish;

ikkinchisi, taqqoslash mezonlarini aniqlashtirib olish uchun obyektlarning farqlarini ajratib turadigan xususiyatlarni aniqlash. Shu bilan birga, zarur bo'lgan qo'shimcha mezonlarni o'rnatish orqali obyektlar yoki hodisalarning ma'lum xususiyatlariga sotsiologik ta'rif beramiz. Shuningdek, taqqoslash uchun Sharq va G'arb mutafakkirlarining yozib qoldirgan manbalarda keltirilgan ma'lumotlar hajm jihatida juda katta bo'lganligi sababli biz faqat bizni qiziqtirgan ma'lumotlar, ya'ni davlatlar nomi va soni, davlat va jamiyatni boshqaruvi shakli, jamiyatning ijtimoiy strukturasi, sotsial stratifikatsiya, ijtimoiy toifalar, ilm, fan va ma'rifatning rivojlanganlik darajasi, adolatli boshqaruv, davlat boshqaruviga doir islohotlarga oid manbalarni taqqoslash mezoni sifatida olindi.

Taqqoslashda keltirilgan tarixiy manbalar va boshqa manbalar asosidagi to'plangan ma'lumotlar va faktlarni miloddan avvalgi davrlar, milodiy I asrdan V asrgacha bo'lgan davr, VI-X ilk o'rta asrlar va XI-XVI o'rta asrlardan iborat to'rtta alohida davrlarga bo'lib qiyoslash va har qiyoslangan davrning xulosalarini taqqoslab, yakuniy xulosalarni shakllantirish orqali qiyosiy sotsiologiya usuli qo'llaniladi [5; 285].

Tahlil va natijalar: *Miloddan avvalgi 3000-yildan milodiy I asrgacha bo'lgan davrlarda Sharq va G'arbiy Yevropadagi qadimgi ilk davlatlar*. Sharq va G'arbdagi ilk davlat soni bo'yicha Sharq o'zining 3000 ming yillik tarixga ega 18 ta davlati bo'lganligi bilan G'arbiy Yevropaning Antik davrdagi 4 ta davlatdan o'zining soni va yoshi bilan ustunlik qiladi. Davlat boshqaruv shakliga keladigan bo'lsak, Sharqdagi Despotizm va Monarxiya boshqaruv shaklini doim o'zida saqlab qolgan. G'arb esa davlat boshqaruv shaklini demokratiya va respublika shaklida boshqarganligi davlat boshqaruvida xalqning ishtiroki ta'minlangani bilan ustunlik qiladi. Bunday holatga, albatta, o'sha davlatlarda yashagan aholining soni bilan ham baho berish lozim. Agar G'arbiy Yevropada 4 ta davlat bo'lgan bo'lsa, uning aholisi va maydoni ham Sharq davlatlarining hududiga qaraganda kichikroq va aholi soni ham kamroq bo'lgan. Bunga misol qilib 1911-yilda arxeologlar Qadimgi Hindistondagi miloddan avvalgi III-II ming yilliklardagi Xarappa sivilizatsiyasi davriga to'g'ri keladigan Mohenjo-Daro (Pokistondagi "O'liklar tepasi" deb ataladigan) shahrini topdilar va 1922-yilda qazish ishlarini boshlaganlar). Bu yerda arxeologlar 1000 dan ortiq aholi punktlari borligini aniqlaganlar va ushbu hududda besh millionga yaqin odam yashagan, deb xulosa berganlar [6; 187-192].

Diniy g'oyalarga doir muqaddas kitoblar soni bo'yicha Sharq davlatlari ustunlikka ega bo'lib, ularning deyarli barchasi Qadimgi Xitoydan tashqari ilohiy kitoblariga egaligidir. G'arbiy Yevropadagi ushbu to'rtta davlatdagi dinlar afsonaviy bo'lib, ularning diniy aqidalari ilohiy kitob shaklida bo'lmagan. Jamiyat ijtimoiy strukturasiga kelsak, Sharqda ham G'arbda ham deyarli bir xildek, ammo shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, G'arbda davlat jamiyat uchun, Sharqda esa jamiyat davlat uchun degan tamoyil ijtimoiy struktura mazmunini farqlaydi. Bu mezon bo'yicha Sharq ham G'arb ham bir xil ustunlikka ega deb hisoblash mumkin [7; 219].

Jamiyatning sotsial stratifikatsiyasidagi stratalar soni bo'yicha 12 ta stratalari bilan Sharq davlatlari ustunlikka ega. G'arb davlatlarida stratalar soni 8 ta bo'lgan. G'arb va Sharqning sotsial stratifikatsiyasidagi farq shundaki, Sharqda stratalar joyi qat'iy belgilanib, shaxs o'zining sotsial maqomini o'zgartira olmagan. G'arbda esa shaxsning rivojlanishi yoki kuchli bo'lishi bilan u o'z sotsial maqomini o'zgartirib vertikal stratifikatsiya bo'ylab yuqoriga ko'tarilish imkoniyati bo'lgan.

Ilm va fandagi kashfiyotlari bo'yicha Sharq har taraflama ustun bo'lgan. Sharq sivilizatsiyasi G'arbdagi mavjud barcha sivilizatsiyalarni ibtidosi bo'lgan G'arb mutafakkirlari tomonidan o'zlashtirilgan. Bunga misol qilib, Miletlik Fales o'zining ko'p bilimlarini Misrda olgan va u yerda

savdo masalalari bo‘yicha bir necha bor tashrif buyurgan. Pifagor 12 yil davomida Misr ruhoniylaridan sonlar yoki umuminsoniy tamoyillar haqidagi muqaddas fanni, ya’ni matematikani o‘rgangan va Misrning Iskandariyasida yashagan Evklid o‘zining mashhur geometriyasini yaratishda ularning bilimlarini keng o‘zlashtirgan. Yevropaliklar raqamlarni arab mutafakkirlaridan olganliklari uchun arab raqamlari deyiladi. Aslida Sharq mutafakkirlaridan Al Xorazmiy bu raqamlarni butun dunyo xalqlariga berganligini ko‘plab manbalar tasdiqlaydi.

Davlat boshqaruviga doir islohotlar bo‘yicha Sharq o‘zining 5 ta yirik davlatidagi islohotlari bilan ustunlikka ega. G‘arbda esa respublika va demokratiyaga doir islohotlar bo‘lgan. Adolatli davlat boshqaruviga doir konsepsiyalar soni bo‘yicha ham Sharq 4 ta yirik davlatda yaratilgan konsepsiyalari bilan ustunlik qiladi. G‘arbda esa Qadimgi Rim va Yunoniston faylasuflarining ta’limotlari bilan kifoyalangan. Miloddan avvalgi davrdagi qiyosiy tahlilida Sharq davlatlari 6 ta ustunlik jihati bilan G‘arbiy Yevropadagi davlatlar esa 2 ta ustunlik bilan izohlanadi. Sharq o‘zining sivilizatsion jarayonlari bilan G‘arb sivilizatsion jarayonlariga metodologik ta’sir ko‘rsatganini shu sifatiy va miqdoriy ko‘rsatkichlarni qiyoslash usuli bilan asoslantirish mumkin. Bunday asoslantirish uchun jadvalda ko‘rsatilgan Sharq va G‘arb ko‘rsatkichlariga maxsus kod raqamini berish hamda shu raqamlarning yig‘indisi qo‘shish orqali yakuniy natijaga sotsiologik ta’rif berish orqali erishildi [9; 314].

Milodiy I asrdan V asrgacha bo‘lgan davrlarda Sharq va G‘arbiy Yevropadagi davlatlar. Ilk o‘rta I-V asrlar davrida Sharq va G‘arbiy Yevropadagi davlatlar soni ham ko‘payib, o‘zidan oldingi davrlardagi davlatlar kabi rivojlana olmagan bo‘lsa-da, ilk o‘rta asrlardagi davlatlar ham ma’lum darajada davlat tarixchiligida o‘zining munosib o‘rniga ega deyish mumkin. Sharqda davlatlar soni 14 taga yetib, G‘arbdagi 7 ta davlat soniga qaraganda ustunlikka ega. G‘arb va Sharq davlatlarida davlat boshqaruvi despotizm va monarxiya bir xilda shakllanganligi bois, Sharq va G‘arb bir xil ustunlikka ega. Davlat va jamiyat uchun muhim bo‘lgan diniy g‘oyalarning muqaddas kitoblar soni Sharqda 4 tani va diniy-falsafiy ta’limotlar 6 tani tashkil qilib, G‘arbdan ustunlikka ega. G‘arbda esa muqaddas diniy kitob sifatida Sharqdan kirib kelgan Xristian dinining muqaddas kitobi Injil yagona kitob va oldingi Rim va Yunoniston diniy ta’limotlari bo‘lgan.

Jamiyat ijtimoiy strukturasi Sharqda 4 taga tushib, G‘arb bilan bir xilda 4 tani tashkil qilgan holda Sharq va G‘arb bir xil ustunlikka ega bo‘lgan. Jamiyat sotsial stratifikatsiyasidagi stratalar va ijtimoiy toifalarning turlicha bo‘lishi Sharq davlatlari o‘zining 12 ta stratalari bilan ustunlik qilsa, G‘arbda jamiyat 7 ta stratalarga bo‘lingan va stratalar o‘rtasidagi chegara qat’iy belgilanib, stratani o‘zgartirishga yo‘l qo‘yilmaganligi oldingi stratifikatsion tartibotlarning tubdan o‘zgarganligi Sharq davlatlaridagi stratifikatsion tizimiga yaqinlashgan. Ilm va fandagi kashfiyotlar orqali G‘arb 5 ta yo‘nalishi bilan ustunlikka ega bo‘lgan. Sharqda ilm va fandagi kashfiyotlar 4 taga tushgan. Davlat boshqaruviga doir islohotlar bo‘yicha Sharq davlatlarida amalga oshirilgan 9 ta islohot bilan ustunlik qilgan. G‘arbda esa bu davrlarda 6 ta islohot amalga oshirilgan. Adolatli davlat boshqaruviga doir yangi konsepsiyalar bo‘yicha 2 tadan yangi konsepsiya ishlab chiqishi bilan Sharq va G‘arb bir xil ustunlikka ega.

Ilk o‘rta I-V asrlar davridagi qiyosiy tahlil Sharq davlatlari 7 ta ustunlik jihati bilan G‘arbiy Yevropadagi davlatlar esa 4 ta ustunlik bilan izohlanadi. Sharqda ushbu davr mobaynida sivilizatsion jarayonlar bir muncha sustlashganini ko‘rsatsada, bu davrda G‘arb sivilizatsion jarayonlariga Sharqda shakllangan xristian dinini Yevropaga kirib borishi bilan metodologik ta’sir ko‘rsatganini aytish mumkin. Chunki xristian dini G‘arbiy Yevropadagi davlatlarning davlat va jamiyat boshqaruvidan toki, ijtimoiy va ko‘plab diniy-falsafiy masalalarga ma’rifatli yechim topa boshlagan. Bu Yevropadagi inson ongini o‘zgartirgan va sivilizatsion jarayonlari pozitiv tarafga boshqarganligi bilan asoslantirish mumkin. Bu jadvalda ham asoslantirish uchun jadvalda ko‘rsatilgan Sharq va G‘arb ko‘rsatkichlariga maxsus kod raqamini berish va shu raqamlarning yig‘indisini qo‘shish orqali yakuniy natijaga sotsiologik ta’rif berish orqali erishildi [10; 340].

VI-X o‘rta asrlar davrida Sharq va G‘arbiy Yevropadagi davlatlar. VI-X o‘rta asrlar davrida Sharq va G‘arbiy Yevropadagi davlatlar soni yanada ko‘payib, o‘zidan oldingi davrlardagi davlatlardan rivojlanishda ancha oldinga ketganligini ko‘rish mumkin. Sharqda davlatlar soni 24 taga yetib, G‘arbdagi 8 ta davlat soniga qaraganda Sharq ustunlikka ega. G‘arb va Sharq davlatlarida davlat boshqaruvi monarxiya bir xilda shakllanganligi bois, Sharq va G‘arb bir xil ustunlikka ega. Davlat va jamiyat uchun muhim bo‘lgan diniy g‘oyalarning muqaddas kitoblar soni Sharqda 4 tani va diniy-falsafiy ta’limotlar 5 tani tashkil qilib, G‘arbdan Sharq ustunlikka ega. G‘arbda esa muqaddas diniy

kitob sifatida sharqdan kirib kelgan xristian dinining muqaddas kitobi Injil yagona kitobi yagona e'tiqod bo'lib qolgan.

Jamiyat ijtimoiy strukturasi sharqda 5 taga ko'tarilib, g'arbdan bittaga ko'tarilgan va ustunlik qilgan. G'arbda ijtimoiy strukturalar soni 4 tani tashkil qilgan. Jamiyat sotsial stratifikatsiyasidagi stratalar va ijtimoiy toifalarning soni bo'yicha Sharq davlatlari o'zining 14 ta stratalari bilan ustunlik qilsa, g'arbda jamiyat 7 ta stratalarga bo'lingan. Sharqdagi stratifikatsion jarayonlardagi o'zgarish chegara o'rtasidagi qat'iy belgilangan to'siqlar asta-sekin bekor bo'lib, stratani o'zgartirishga yo'l qo'yilganligi, sharqdagi oldingi stratifikatsion tartibotlari va sharq davlatlaridagi stratifikatsion tizimi pozitiv tarafga o'zgarganligini ko'rish mumkin.

Ilm va fandagi kashfiyotlar bilan sharq o'zining 4 ta yo'nalishi bo'yicha ustunlikka ega bo'lgan. G'arbda ilm va fandagi kashfiyotlar 2 taga tushgan. Davlat boshqaruviga doir islohotlar bo'yicha Sharq davlatlarida amalga oshirilgan 4 ta islohot bilan ustunlik qilgan. G'arbda esa bu davrlarda 1 ta islohot amalga oshirilgan. Adolatli davlat boshqaruviga doir yangi konsepsiyalar bo'yicha 2 tadan yangi konsepsiya ishlab chiqishi bilan sharq ustunlik qilgan, G'arbda esa 1 ta konsepsiya ishlab chiqilgan.

VI-X o'rta asrlar davrlarining qiyosiy tahlili sharq davlatlari 8 ta ustunlik jihati bilan G'arbiy Yevropadagi davlatlari esa bu davrda biror ustunlikka ega bo'lmaganligi bilan izohlanadi. Bu degani G'arbda hech qanday rivojlanish yoki biror islohotlar bo'lmaganmi? degani emas. Shunchaki, Sharqda sivilizatsion jarayonlar kuchayib, katta bir renessans ostonasida bo'lganligi sababli rivojlanishda G'arbdan ancha o'zib ketganidir. Bu jadvalda ham asoslantirish uchun jadvalda ko'rsatilgan Sharq va G'arb ko'rsatkichlariga maxsus kod raqamini berish va shu raqamlarning yig'indisini qo'shish orqali yakuniy natijaga sotsiologik ta'rif berish orqali erishildi.

X-XVI o'rta asrlar davrida Sharq va G'arbiy Yevropadagi davlatlar. X-XVI o'rta asrlar davrida Sharq va G'arbiy Yevropadagi davlatlar soni yanada oshgan. Sharqda davlatlar soni 26 taga yetib, G'arbiy va Sharqiy Yevropadagi davlatlarni qo'shib hisoblaganda 9 ta davlat soniga qaraganda Sharq ustunlikka ega. G'arb va Sharq davlatlarida davlat boshqaruvi bir xilda shakllanganligi bois, Sharq va G'arb bir xil ustunlikka ega. Davlat va jamiyat uchun muhim bo'lgan diniy-falsafiy ta'limotlar 4 tani tashkil qilib, G'arbdan Sharq ustunlikka ega. G'arbda esa Xristian dini Katolik va Pravoslaviyaga bo'linganligi sababli diniy ta'limotlar 2 xil bo'lgan.

Jamiyat ijtimoiy strukturasi Sharqda 5 ta bo'lganligi sababli bu mezon bo'yicha ustunlikka ega, G'arbda esa ijtimoiy strukturalar soni 4 tani tashkil qilgan. Jamiyat sotsial stratifikatsiyasidagi stratalar va ijtimoiy toifalarning soni bo'yicha Sharq davlatlari o'zining 14 ta stratalari bilan ustunlik qilsa, G'arbda jamiyat 10 ta stratalarga bo'lingan. Bu mezon bo'yicha Sharqda ham G'arbda ham stratalar nomi o'zgarib, yangi stratalar joriy qilinganligi bois oldingilari bekor bo'lganligini ko'rish mumkin. Ilm va fandagi kashfiyotlar bilan Sharq o'zining 37 ta yo'nalishi bilan ustunlikka ega bo'lgan. G'arbda ilm va fandagi kashfiyotlar 15 taga yetgan. Sharq renessans davrini munosib namoyish etib, nafaqat G'arbga balki, butun dunyo sivilizatsiyasiga metodologik ta'sir ko'rsatgan va o'zgartirgan.

Davlat boshqaruviga doir islohotlar bo'yicha Sharq davlatlarida amalga oshirilgan 5 ta islohot bilan G'arbda ham bu davrlarda 5 ta islohot amalga oshirilganligi sababli ikkala tarafning ustunligi bir xilda. Adolatli davlat boshqaruviga doir yangi konsepsiyalar bo'yicha 14 tadan yangi konsepsiya ishlab chiqishi bilan Sharq ustunlik qilgan, G'arbda esa 9 ta konsepsiya ishlab chiqilgan. X-XVI o'rta asrlar davrlarining qiyosiy tahlili Sharq davlatlari 8 ta ustunlik jihati bilan G'arbiy Yevropadagi davlatlari esa bu davrda 2 ta ustunlik bilan izohlandi.

Bu degani Sharqda chinakam renessans davri bo'lganligi va G'arb ham bu renessans davriga intilib, uyg'onish davrini o'tkazganini bildiradi. Bu jadvalda ham asoslantirish uchun ko'rsatilgan Sharq va G'arb ko'rsatkichlariga maxsus kod raqamini berish va shu raqamlarning yig'indisini qo'shish orqali yakuniy natijaga sotsiologik ta'rif berish orqali erishildi. O'rta asrlarda Sharq va G'arbiy Yevropa mamlakatlaridagi davlat boshqaruvi va ijtimoiy tuzilmalarining qiyosiy tahliliga doir xulosani quyida keltirilgan jadval orqali aniq raqamlarda ko'rsatish mumkin (Qarang 1-jadval va 1-diagramma)

9-jadval

O‘rta asrlarda Sharq va G‘arbiy Yevropa mamlakatlaridagi davlat boshqaruvi va ijtimoiy tuzilmalarining qiyosiy tahlili

Sharq va G‘arbiy Yevropa davlatlari	Davlatlar nomi va soni	Davlat va jamiyatni boshqaruv shakli	Diniy g‘oyalarga doir muqaddas kitoblar	Jamiyat ijtimoiy strukturasi	Sotsial stratifikatsiyasidagi stratalar (ijtimoiy toifalar)	Ilm va fandagi kashfiyotlar	Davlat boshqaruviga doir islohotlar	Adolatli davlat boshqaruviga	Jami ustunliklar
Miloddan avvalgi 3000-yildan milodiy I asrgacha bo‘lgan davrlar									
Sharq davlatlari	18	2	4	5	12	7	8	4	60
G‘arbiy Yevropa davlatlari	4	2	2	5	8	8	2	2	33
Milodiy I asrdan V asrgacha bo‘lgan davr									
Sharq davlatlari	14	2	7	4	12	5	9	2	55
G‘arbiy Yevropa davlatlari	7	2	3	4	7	5	6	2	36
VI-X ilk o‘rta asarlarda									
Sharq davlatlari	24	1	9	5	14	4	4	2	63
G‘arbiy Yevropa davlatlari	8	1	1	4	7	2	1	1	25
XI-XVI o‘rta asrlar									
Sharq davlatlari	26	3	4	5	14	37	5	14	108
G‘arbiy Yevropa davlatlari	9	3	2	4	10	15	5	9	57
Sharq davlatlari jami	82	8	24	19	52	53	26	22	286
G‘arbiy Yevropa davlatlari jami	28	8	8	17	32	30	14	14	151

Keltirilgan ushbu jadvalda tadqiqot mezoni sifatida tanlab olingan yo‘nalishlar bo‘yicha har bir faktni tahlilini ko‘rish mumkin. Sharq davlatlarida davlat va jamiyatni boshqaruv shakli hamda davlat boshqaruviga doir islohotlar yo‘nalishida Sharq va G‘arb davlatlari bir xilda natijani ko‘rsatgan. Qolgan barcha yo‘nalishlarda Sharq davlatlari katta farq bilan ustunlikka ega bo‘lganligini ko‘rish mumkin.

1-diagramma



1-diagramma. O‘rta asrlarda Sharq va G‘arbiy Yevropa mamlakatlaridagi davlat boshqaruvi va ijtimoiy tuzilmalarining qiyosiy tahlili

Jadvalda keltirilgan ma’lumotlar asosidagi tuzilgan diagrammada Sharq sivilizatsion jarayonlari bilan o‘rta asrlarning oxirigacha G‘arbga metodologik ta’sir ko‘rsatganini va ikkinchi renessans G‘arbda bo‘lishiga zamin yaratganini ko‘rish mumkin. Sharq davlatlari o‘zining davlatchilik va jamiyat boshqaruvi bilan har doim G‘arbda oldinda bo‘lgan. Sharqda bunday yuksak darajadagi sivilizatsion jarayonlar va davlat boshqaruviga oid sotsiologik ta’limotlar G‘arbiy Yevropaning

sivilizatsion jarayonlariga metodologik ta’sir ko‘rsatganini ushbu tadqiqot bilan asoslantirish mumkin [11; 264].

Xulosa va takliflar. Sharq va G‘arbiy Yevropa mamlakatlaridagi davlat va jamiyat boshqaruvi tuzilmalarini taqqoslash uchun davlat jamiyat haqidagi ilk davlatlar haqidagi manbalarning davri va ko‘lamini asos qilib olish, manbalar asosida yig‘ilgan ma’lumotlarni xronologik tartibda ketma-ket va yonma-yon qo‘yish orqali umumiy o‘xshashlik va farqlarni topish va taqqoslash natijasida siyosiy va ijtimoiy vaziyatni haqiqiy tasvirini tavsiflash va yakuniy xulosalarni berish mumkin. Taqqoslash uchun mezon sifatida Sharq hamda G‘arbdagi davlatlar nomi va soni, davlat va jamiyatni boshqaruv shakli, jamiyatning ijtimoiy strukturasi, sotsial stratifikatsiyasidagi stratalar, ijtimoiy toifalar soni, ilm, fan va ma’rifatning rivojlanganlik darajasi, adolatli boshqaruv, davlat boshqaruviga doir islohotlarga oid manbalarni taqqoslash mezoni sifatida olish, to‘plangan ma’lumotlar va faktlarni to‘rtta davrga bo‘lib, ya’ni miloddan avvalgi davrlar, milodiy I asrdan V asrgacha, VI-X ilk o‘rta asarlar va XI-XVI o‘rta asrlardan iborat to‘rtta alohida davrlarga bo‘lib, alohida qiyoslash va har qiyoslangan davrning xulosalari yig‘indisini umumlashtirish orqali yakuniy xulosalarni shakllantirish qiyosiy sotsiologiya usulini muvaffaqiyatli qo‘llash imkonini berdi.

Sharq sivilizatsion jarayonlari bilan o‘rta asrlarning oxirigacha G‘arbga metodologik ta’sir ko‘rsatgan va ikkinchi renessans G‘arbda bo‘lishiga sharoit yaratgan. Sharq davlatlari o‘zining davlatchilik va jamiyat boshqaruviga doir tajribasi har doim G‘arbda oldinda bo‘lgan. Sharqdagi bunday yuksak darajadagi davlat boshqaruviga oid sotsiologik ta’limotlari va konsepsiyalarining lotin va fransuz tillariga tarjima qilinishi G‘arb davlat va jamiyat boshqaruviga doir ta’limotlarni Yevropa universitetlarida asosiy darsliklar sifatida qo‘llanishi G‘arb sivilizatsion jarayonlariga metodologik ta’sir ko‘rsatgan deb, to‘liq ishonch bilan aytish mumkin.

Adabiyotlar

1. Вебер Макс. «Объективность» сотсиально-научного и сотсиально-политического познания. М.: Прогресс, 1990. – С.373.
2. Дюркгейм Э. Метод сотсиологии // Сотсиология. Ее предмет, метод, предназначение / Пер. с фр., составление, послесловие и примечания А.Б. Гофмана. М.: Канон, 1995. – С.115.
3. Миронов Б.Н. Логическая игрушка: фантазии на исторические темы // Журнал сотсиологии и сотсиальной антропологии. 2010а. № 4. – С.72.
4. Токвиль А.Де. Старый порядок и революсия.— Пг., 1918, – С.134.
5. Крашенинникова Н.А., Жидкова О.А.История государства и права зарубежных стран. М.1.1991. – С.285.
6. История государства и права зарубежных стран. Учебник. Т. 1 / Жидков О.А., Крашенинников Н.А., Савельев В.А., Струнников В.Н., и др.; Под общ. ред.: Жидков О.А., Крашенинников Н.А. - М.: Норма, 1996. – С.187-192.
7. Графский В.Г. Всеобщая история государства и права: учебник для вузов. 2-е изд. – М., 2005. – С.219.
8. Abdullaev A.G. Sharq davlat boshqaruviga doir sotsiologik ta’limotlarning G‘arb sivilizatsion jarayonlariga metodologik ta’siri. Monografiya. – T.: “Zebo print”, 2024. – B.310.
9. Abdullaev A.G. Sharq davlat boshqaruviga doir sotsiologik ta’limotlarning G‘arb sivilizatsion jarayonlariga metodologik ta’siri: Fan doktori DSc ilmiy darajasini olish uchun tayyorlagan dissertatsiya avtoreferati. – T.: 2025. – B.76.
10. Abdullaev A.G. Sharq davlat boshqaruviga doir sotsiologik ta’limotlarning G‘arb sivilizatsion jarayonlariga metodologik ta’siri. Monografiya. – T.: “Zebo print”, 2024. – B.314.
11. Abdullaev A.G. Sharq davlat boshqaruviga doir sotsiologik ta’limotlarning G‘arb sivilizatsion jarayonlariga metodologik ta’siri. Fan doktori DSc ilmiy darajasini olish uchun tayyorlagan dissertatsiyasi. – T.: 2025. – B.264.

SAMARQAND UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTNOMASI

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК SCIENTIFIC REPORTS

Texnik muharrir **Sh.Xoliqulov**

Muharrirlar:

I.Sulaymonov - fil.f.d., dotsent
E.Arziqulov - f.-m.f.d., dotsent
O.Yusupova - fil.f.n., dotsent

Mas'ul muharrir:

A. Sh. Yarmuxamedov - f.-m.f.n.

Muassis: Samarqand davlat universiteti Manzil: 140104,
Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15.
Telefon: (0 366) 240-38-47, Faks: (0 366) 239-13-87 e-mail:
axborotnoma.uz
SamDU «Ilmiy axborotnoma» jurnali tahririyati kompyuterida terildi. Bosishga 30.05.2026-yilda ruxsat etildi. Qog'oz o'lchami A-4. Nashriyot hisob tabog'i 10,00
Buyurtma raqami 845 Adadi 30 nusxa.

ISSN 2181-1296